


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 91 333,0 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 6,8 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan 109,7 % ni tashkil qildi.








O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



Yalpi hududiy mahsulot


(2024- yil yanvar-dekabr holatiga, % taqqoslama narxda)

Ko'rsatkichlar	mlrd so'm		2023- yil nisbatan, % hisobida
	2023-yil	2024-yil	
 Yalpi hududiy mahsulot, jami	78 009,0	91 333,0	106,8
shu jumladan:			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	76 388,3	89 587,4	106,7
 Mahsulotlarga sof soliqlar	1 620,7	1 745,6	107,2
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	76 388,3	89 587,4	106,7
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22 665,4	25 223,6	104,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	20 613,3	24 304,3	107,9
 sanoat	14 768,1	17 731,3	107,6
 qurilish	5 845,2	6 573,0	108,5
 Xizmatlar	33 109,6	40 059,5	107,3
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12 472,3	15 324,7	111,0
 tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	4 417,4	5 532,9	110,1
 boshqa xizmatlari	16 219,9	19 201,9	103,7

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati- 104,9 %, (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,2 %), sanoatda – 107,6 % (19,8 %), qurilishda – 108,5 % (7,3 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (44,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,0 % (17,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,1 % (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 % dan (21,4 %) iborat bo'ldi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,1 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 %ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 28,2 %ni, sanoat tarmog'i 19,8 %ni, qurilish 7,3 %ni va xizmatlar sohasi 44,7 %ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 44,7 %ni tashkil etdi va 2023- yil (43,3 %) bilan taqqoslanganda 1,4% punktga ko'paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

(yanvar-dekabr holatiga, jamiga nisbatan foizda)




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 17,1 %ni (2023- yil- 16,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,2 %ni (5,8 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar– 21,4 %ni (21,2 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi


(yanvar-dekabr, jamiga nisbatan, foizda)



Joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 22 259,5 ming so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning (19 410,5 ming so'm) mos davriga nisbatan 4,6 %ga o'sdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 73,2 %ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-dekabr oyida YaHM deflyatori indeksi 2023-yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 109,7 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 112,7 % va sanoatda – 111,5 % ni qayd etildi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-dekabr holatiga, %da


2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 73,2 %ni (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 72,2 %) tashkil qildi.



Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 %ni tashkil etdi.

YaIM da Farg'ona viloyatining ulushi, foizda



Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

yanvar–dekabr holatiga

Hududlar	YaHM mlrd so‘m			Aholi jon boshiga, ming so‘m		
	2023- yil	2024 - yil	%	2023- yil	2024- yil	%
O‘zbekiston Respublikasi	1 204 485,4	1 454 573,9	106,5	33 079,0	39 131,4	104,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	39 166,2	45 658,5	106,3	19 687,5	22 645,8	104,9
Andijon	77 337,9	90 522,1	106,6	23 027,5	26 409,0	104,4
Buxoro	61 242,6	71 560,4	106,6	30 214,9	34 729,6	104,8
Jizzax	37 383,2	43 057,9	105,3	25 064,2	28 281,0	103,1
Qashqadaryo	68 648,6	80 658,3	106,5	19 494,1	22 405,1	104,2
Navoiy	88 215,4	117 297,8	107,7	82 800,2	108 108,6	105,8
Namangan	58 173,7	68 915,7	107,6	19 187,8	22 238,7	105,3
Samarqand	83 149,5	99 866,1	106,9	19 971,5	23 481,3	104,6
Surxondaryo	46 999,2	54 354,1	105,9	16 538,5	18 670,0	103,4
Sirdaryo	24 001,7	28 003,3	104,5	26 512,4	30 359,2	102,6
Toshkent v.	121 442,6	146 385,2	106,7	40 178,2	47 526,1	104,7
Farg‘ona	78 009,0	91 333,0	106,8	19 410,5	22 259,5	104,6
Xorazm	43 666,7	51 261,0	106,4	22 089,6	25 452,4	104,4
Toshkent sh.	215 099,2	281 147,4	110,4	71 733,2	91 376,6	107,6

YaHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,4 f.p. (2023-yilning yanvar-dekabrda – 1,4 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,4 f.p. (2023-yilning yanvar-dekabrda– 1,1 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,6 f.p. (2023-yilning yanvar-dekabrda – 0,6 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi– 3,2 f.p. (2023-yilning yanvar-dekabrda – 2,4 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. (2023-yilning yanvar-dekabrda– 0,2 f.p.)ga ko‘paydi.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida YaHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,7 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari xizmatlar sohasida – 112,7 % va sanoatda – 111,5 % qayd etildi.